

MA'LUMOTNOMA № 145 (17 iyul 2025-yil)

Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti 1-bosqich 6-2 Uzb 24-guruh guruh talabasi Toxirova Zaxro Mohir qizining 2024/2025-o'quv yilida sport bilan shug'ullanishi va sog'lom turmush tarziga amal qilishi to'g'risida.

Berildi ushbu ma'lumotnoma shu haqdaki, 2024/2025-o'quv yilida talaba Toxirova Zaxro Mohir qizining sport bilan shug'ullanishi va sog'lom turmush tarziga amal qilishi o'rganildi va 3 ball bilan baholandi.

Fakultet dekani:



Q.R.To'xsanov

Buxoro davlat universiteti
Filologiya fakulteti tyutorlari va talabalarining "Universal" sport majmuasida
qo'l jangi bo'yicha jahon chempionati musabaqasidagi tashrifi
BAYONNOMASI

Buxoro sh.

12.10. 2024-yil

Rais: - T.A.Rajabov

Kotib: – R.D.Muqumova.

Qatnashdi: filologiya fakulteti yoshlar masalalari bo'yicha dekan o'rinbosari T.a.Rajabov.Fakultet tyutorlari R.D.Muqumova,K.Zulfiyeva,Sh.Oripova va talabala yoshlar.

KUN TARTIBI:

1. Buxoro shahridagi "Universal" sport majmuasida bo'lib o'tayotgan qo'l jangi sport musabaqasida O'zbekiston terma jamoasini qo'llab quvvatlash.

Eshitildi:

Joriy yilning 10-14 oktabr kunlari Buxoro shahrida qo‘l jangi sport turi bo‘yicha yoshlar va o‘smirlar o‘rtasidagi jahon chempionati bo‘lib o‘tadi.

Mazkur chempionatda 34 ta davlatdan 400 ga yaqin yosh sportchilar ishtirok etadi va unda 37 ta vazn (o‘g‘il bolalar 25 ta va qiz bolalar 12 ta vazn) toifasida o‘zaro bellashadilar.

Jahon chempionatida Milliy terma jamoamizning 74 nafar sportchilari yurtimiz sha‘nini himoya qilishadi.

Shu munosabat bilan Joriy yilning 12-oktabr kuni Buxoro davlat universitetiga qarashli universal sport majmuasida Yoshlar va o‘smirlar o‘rtasida qo‘l jangi bo‘yicha Jahon chempionati bo‘lib o‘tmoqda.

Unda Buxoro davlat universiteti rahbar xodimlari, professor-o‘qituvchilari va talaba yoshlari tomoshabin sifatida ishtirok etdilar.

QAROR QILINDI:

1. Talabalarni sportga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida samarali tadbirlar tashkil etilsin.

Bayonlashtirdi:

R.D.Muqumova.



.....
<https://t.me/MANAVIYATLIINSONLAR/54551>

Buxoro davlat universiteti
Filologiya fakulteti tyutorlari va talabalarining "Universal" sport majmuasida
qo‘l jangi bo‘yicha jahon chempionati musabaqasidagi tashrifi
BAYONNOMASINI ASOSLOVCHI FOTO SURATLAR



Buxoro davlat universiteti "O'zbekiston-yoshlar mamlakati" mavzusida o'tkazilgan sport musobaqasi

BAYONNOMASI

Buxoro shahar

24.10.2024.

QATNASHDILAR: Universitet prorektori Azizbek Amonov, professor o'qituvchilar, fakultet tyutorlari va talabalar.

KUN TARTIBI:

1. "O'zbekiston - yoshlar mamlakati" sport festivali o'tkazish

ESHITILDI:

Buxoro shahridagi Universal sport majmuasida viloyat, shahar hokimligi va huquq tartibot organlari vakillari, viloyat yoshlar ishlari boshqarmasi vakillari, oliy ta'lim muassasalari rahbarlari, viloyat sport boshqarmasi tarkibiga kiruvchi federatsiyalar, sport maktablari va keng jamoatchilik vakillari, universitet professor-o'qituvchilari, talabalari, tyutorlar ushbu sport festivaliga ishtirok etishdi.

Tadbirni universitet prorektori Azizbek Amonov kirish so'zi bilan ochib berdi. Shuningdek, universitetning bir qator professor o'qituvchilari so'zga chiqib ushbu kun bilan barchani muborakbod etishdi hamda yaqinlashib kelayotgan saylov jarayoni to'g'risida ma'lumot berishdi.

QAROR QILINDI.

1. Talabalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida mazkur sayllar doimiy ravishda o'tkazilsin. talabalarni milliy qadriyatlarimizga bo'lgan hurmatini oshirish.

Bayonlashtiruvchi tyutor: R.D.Muqumova.



https://t.me/MANUVIYATLILSONLAR/
55186



Buxoro davlat universiteti Universal sport majmuasida “Sportchi – yurt himoyachisi” shiori ostida “Yoshlar sport festivali”

BAYONNOMASI

Buxoro shahar

15.05. 2025-yil

Qatnashdilar: Filologiya fakulteti rahbariyati, tyutorlari va talaba yoshlari

K U N T A R T I B I: 1. Talabaning darsdan bo’sh vaqtini mazmunli o’tkazish maqsadida sport tadbirlarida talabalar ishtirokini ta’minlash haqida

ESHITILDI Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2025-yil may oyi respublika oliy va kasbiy ta’lim muassasalarida “Sportchi – yurt himoyachisi!” shiori ostida “Sport oyligi” deb e’lon qilindi. Mazkur tashabbus O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30-oktabrdagi PF-6099-sonli “Sog‘lom turmush tarzi va ommaviy sportni rivojlantirish to‘g‘risida”gi farmoni ijrosi doirasida amalga oshirilmoqda. Bugun, 15-may kuni, Buxoro davlat universiteti Universal sport majmuasida "Sport oyligi" doirasida “Sportchi – yurt himoyachisi” shiori ostida “Yoshlar sport festivali” o‘tkazildi. Festivalda BuxDU sportchi talaba yoshlari, professor-o‘qituvchilar, BuxDU rektori Obidjon Xamidov boshchiligidagi universitet rahbariyati, faxriy ustozlar, xalqaro va respublika sport musobaqalarida yuqori natijalar ko‘rsatgan sportchi talabalar ishtirok etishdi. Shuningdek, majmua foyesida sportchi-talabalar erishgan yutuqlari aks etgan ko‘rgazma hamda San‘atshunoslik fakulteti jamoasi tomonidan milliy kuylar ijro etilib, rasmlar ko‘rgazmasi namoyish etildi. Filologiya fakulteti Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha dekan o‘rinbosari T.A.Rajabov hamda fakultet tyutorlari boshchiligida Buxoro davlat universitetiga qarashli Universal sport majmuasida

“Sportchi – yurt himoyachisi” shiori ostida “Yoshlar sport festivali”da faol ishtirok etdilar Bayonlashtirdi R.D.Muqumova.



Buxoro davlat universiteti
Filologiya fakultetida “Salomatlik uchun 5000 qadam” munosabati bilan o‘tkazilgan
yurish marofoni
BAYONNOMASI

Buxoro sh.

18-mart 2025-yil

Qatnashdi: Buxoro davlat universitet ma’naviyat departament xodimlari zam dekanlar, tyutorlar va talabalar.

KUN TARTIBI:

“Salomatlik uchun 5000 qadam” yurish marafonini o‘tkazildi . Ushbu tadbir yuzasidan Filologiya fakulteti tyutorlari va talabalari Inson har doim sport bilan shug‘ullanib turishi kerak. Inson sog‘lom bo‘lishi uchun faqatgina sport emas, balki, tog‘ri ovqatlanish, o‘z vaqtida uxlash, tozalikka rioya qilishi, xar kuni badantarbiya bilan shug‘ullanib turishi ham kerak.Yugurish eng yaxshi sport turlaridan biri hisoblanadi. Inson ko‘proq piyoda yurishi kerak. Insonni tanasi sog‘lom bo‘lsa uning olayotgan bilimi ham shuncha yaxshi edida qoladi.

SO‘ZGA CHIQQILAR:

Toza havoda organizmning bir maromda ishlashi, immunitetning oshishiga xizmat qiladi.

2025-yil 18-mart erta sahardan Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish maqsadida Filologiya fakulteti Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha dekan o‘rinbosari T.A.Rajabov hamda fakultet tyutorlari boshchiligida tashkil etilgan "Salomatlik uchun 5000 qadam yurish marafoni"da talaba-yoshlar faol ishtirok etishdi.

QAROR QILINDI:

1. “Salomatlik uchun 5000 qadam” tadbiri ko‘tarinki ruhda o‘tkazildi deb qabul qilinsin;
2. Ma’naviy va ma’rifiy tadbirlar muntazam ravishda tashkil etilsin.

Bayonlashtirdi:

R.D.Muqumova.



https://t.me/buxdu_uz/59850

Buxoro davlat universiteti
Filologiya fakultetida “Salomatlik uchun 5000 qadam” munosabati bilan o‘tkazilgan
yurish marofoni
BAYONNOMASINI ASOSLOVCHI FOTO SURATLAR



Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti tyutorlari va talabalarining “Salomatlik uchun 5000 qadam” shiori ostida otkazilgan yurish marafoni

BAYONNOMASI

Buxoro shahar

06.05.2025.

QATNASHDILAR: Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosari T.A.Rajabov, fakultet tyutorlari va talabalari

KUN TARTIBI:

1. Talabalar bilan “Salomatlik uchun 5000 qadam” shiori ostida yurish marafonini o‘tkazish

2. Yosh avlodni sog'lom turmush tarziga rioya qilishga undash va sport bilan shug'ullanishni kanda qilmaslik

ESHITILDI:

Sport talaba-yoshlarning salomatligini mustahkamlash hamda sog'lom ruhda tarbiyalashga xizmat qiladi. Aynan shu maqsadda 6-may kuni erta tongdan Filologiya fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari T.A.Rajabov hamda fakultet tyutorlari boshchiligida talabalar bilan birgalikda "Sog'lom hayot uchun 5000 qadam" shiori ostida yurish marafoni tashkil etildi. Erta tongdan badantarbiya mashg'ulotlarini bajarish organizmda qon aylanishini yaxshilaydi va kayfiyatimizni ko'taradi. Yurish marafoni yakunida talabalar badantarbiya mashg'ulotlarini ham bajarishdi. O'tkazilgan yurish marafoni barcha talabalarga ma'qul bo'lib kun bo'yi tetik yurishlaqriga kata turtki bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Sog'lom turmush tarzini ko'pchilik faqat to'g'ri ovqatlanish, gigienik talablarga rioya qilishda, deb tushunadi. Toza havoda yurish va ertalabki badantarbiya mashqlarini bajarish ham inson organizmining bir maromda ishlashi hamda immunitet hosil bo'lishiga xizmat qiladi.

QARORO QILINDI:

1. Fakultetda muntazam ravishda yurish marafoni o'tkazilsin va ommalashtirilsin



https://t.me/buxdu_uz/63697



BuxDU jamoasi Qorovulbozor tumanida bo'lib o'tishi rejalashtirilgan "Talaba yugur" ommaviy yugurish marafonida ishtirok etish uchun yo'lga chiqdi.

